

FAVQULODDA VAZIYATLARNI BOSHQARISHDA XODIMLARNING  
TAYYORGARLIGI VA O'QUV DASTURLARI

Axmedov Alisher Parda o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Energetika va sanoat muhandisligi fakultet

Ekologiya va Hayot faoliyat xavfsizligi kafedrasи. Assistant.

Raximov Azizbek Raxmonjon o'g'li

Hayot faoliyat xavfsizligi yo'nalishi 4-kurs ta'labasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1474035>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlarni boshqarish bo'yicha treninglar va xodimlar uchun tayyorlov dasturlarining ahamiyati o'r ganiladi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va zaruriy choralarni tezkor amalga oshirish uchun samarali tayyorgarlikni ta'minlash maqsadida xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida amaliy yechimlar va tavsiyalar berilib, ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan yechimlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** Favqulodda vaziyatlar, Tayyorlov dasturlari, Xodim tayyorgarligi, Samarasiz tizimlar, O'quv jarayonlari, Tahlil qilish, Xavfsizlik choralar, Boshqaruv tizimlari, Amaliy yechimlar, Taqdim etilgan tavsiyalar.

**EMERGENCY MANAGEMENT TRAINING AND TRAINING PROGRAMS**

**Abstract.** This article examines the importance of emergency management training and training programs for employees. The issues of developing training programs for improving the skills of employees in order to ensure effective preparation for the prevention of emergencies and the prompt implementation of necessary measures are considered. During the study, practical solutions and recommendations were given, and solutions were proposed to improve educational processes.

**Keywords:** Emergency situations, Training programs, Employee training, Ineffective systems, Educational processes, Analysis, Security measures, Management systems, Practical solutions, Recommendations presented.

**ПРОГРАММЫ ОБУЧЕНИЯ И ПОДГОТОВКИ ПЕРСОНАЛА ПО УПРАВЛЕНИЮ  
ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМИ СИТУАЦИЯМИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается важность обучения управлению чрезвычайными ситуациями и программ обучения для сотрудников. Рассмотрены вопросы

разработки программ обучения для сотрудников, обеспечивающих эффективную подготовку к предупреждению чрезвычайных ситуаций и оперативное выполнение необходимых мер. В ходе исследования были найдены практические решения и были даны рекомендации и предложены решения, направленные на улучшение образовательных процессов.

**Ключевые слова:** Чрезвычайные ситуации, Программы обучения, Обучение сотрудников, Неэффективные системы, Процессы обучения, Анализ, Меры безопасности, Системы управления, Практические решения, Предоставленные рекомендации.

## Kirish

- 1.Tadqiqotning dolzarbligi, mavzu doirasida mavjud muammolar.
- 2.Muammoni hal qilish yo'llari.
- 3.Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar

### **1.Tadqiqotning dolzarbligi, mavzu doirasidagi mavjud muammolar**

Zamonaviy dunyoda tabiy va texnogen omillar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya va sanoatni rivojlantirish kabi global muammolar oldida favqulodda vaziyatlarni samarali boshqarish uchun xodimlarni o'qitish va tayyorlash juda muhimdir.

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar: Moliyalashning etarli emasligi va o'quv materiallarining eskirganligi. Ta'limga yagona standartlar va yondashuvlarning yo'qligi.

Favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish uchun xodimlarning past xabardorligi va tayyor emasligi. Amaliy mashg'ulotlar uchun zamonaviy texnologiyalar va simulyatorlardan foydalanilmaslik.

### **2.Muammoni hal qilish yo'llari**

Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinishi mumkin: Xalqaro standartlar asosida yagona ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

Virtual haqiqat xodimlar uchun xavfli vaziyatlarni xavfsiz muhitda mashq qilish imkonini beradi va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalarni o'qitishga integratsiyalash yani texnologiyalar bilan o'qitish jarayoniga muammolarni hal qilish va ta'lim sifatini oshirish uchun kiritish va moslashtirish jarayonidir. Xodimlarni real hayot stsenariylariga tayyorlash uchun muntazam treninglar va simulyatsiyalar o'tkazing.

Ta'lim muassasalari, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida tajriba almashish bo'yicha o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

### **3.Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar**

O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish ta'lim jarayonini zamonaviy talablar va texnologiyalar asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish jarayoni amalga oshrish.Mavjud o'quv dasturlarini zamonaviy qiyinchiliklar va xavflarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi. O'quv markazlarini yaratish kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan markazlarni tashkil etish.Innovatsion o'qitish usullarini qo'llash. Keys usullaridan foydalanish yani hodimlarga amaliy misollar va real hayotdagি muammolarni hal qilishga qaratilgan o'quv usullardan biri hisoblanib, yong'in yoki evakuatsiya jarayonini virtual yordamida simulyatsiya qilish,gamifikatsiya va simulyatsiya kabi interaktiv usullardan foydalanish, ushbu interaktiv usullar o'quv jarayonini qiziqarli, samarali va real hayotga yaqinlashtiradi qolaversa ishchi va xodimlarni faolligini oshiradi va amaliy tajriba beradi, monitoring va samaradorlikni baholash, ta'lim dasturlarini amalga oshirish muvaffaqiyatlarni muntazam ravishda sinovdan o'tkazish va tahlil qilish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

**Xulosa:** Maqola favqulodda vaziyatlarni boshqarishda kadrlarni o'qitish va tayyorlash muammolariga bag'ishlangan. Hozirgi muammolar, jumladan, ta'lim dasturlari va kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklar ko'rib chiqiladi.

Yechimlar taklif qilindi: ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilishdan tortib, yangi texnologiyalardan foydalanishgacha. Mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ilmiy asoslangan bo'lib, kelajakda favqulodda vaziyatlarning xavfi va oqibatlarini minimallashtirish imkonini beradi. Favqulodda vaziyatlarni boshqarishda xodimlarning tayyorgarligini oshirish uchun nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni birlashtirilgan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'quv dasturlarini joriy qilish lozim deb o'layman.